

NEMIS TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI

Atabayeva Dilfuza Atanazarovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 44-son umumta'lim maktabi nemis tili fani  
o'qituvchisi

Masharipova Shaxodat Ibragimovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 9- IDUM nemis tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Tan olish kerak, uzoq vaqtdan beri O'zbekistonda nemis tili chet tili sifatida o'qilib kelinmoqda. Faqat mustaqilligimiz sharofati bilan biz mamlakatning ichki imkoniyatlarini o'rgana oldik xolos.

O'qituvchi dasrni olib borar ekan uni samaradorligini yana ham oshirish uchun turli xildagi metodlardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Buning uchun esa o'qituvchi darsni oldindan ma'lum bir tartibda loyihalab oladi. Darsning loyihalash tartibi juda ko'p jarayonlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon pedtexnologiyasi talab etadigan metodik jarayonlar nemis tili fanini o'rgatishda eng muhim omillardan biridir.

Mazkur maqolada shu loyihalash jarayonlarini ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** Projekt loyihalash, Nazariy va amaliy birikmalar, Fanlararo integratsiya va metodlar. Kontekst, Intervyu, Endprodukt, Pedtexnologiya.

Projekt so'zi nima o'zi? Bu so'z lotincha bo'lib "proicere" loyihalash, oldindan tuzmoq ma'nosini bildiradi. XIX asrda shimoliy Amerikada pedagok Villiam Heart Kipatrick (1875-1965) va Jon Devey (1859-1952) o'qitish texnologiyasini, malakasini ishlab chiqishni oldilariga maqsad qilib qo'yishdi va bunga amaliy jihatdan erishishdi. Bu jarayonda esa projektning asosiy xususiyati nimadan iborat? - degan savol tug'ildi. Bu loyihaning asosiy farqi nimada? Uni amaliyotda qo'llash uchun qancha vaqt ketadi? Bir kun yoki undan ko'proq vaqt ketadimi? Davomiyligi butun o'quv yilini oladimi yoki yo'qmi?

Loyihaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

- Nazariy va amaliy birikmalar.
- Fanlararo integratsiya va metodlar.
- Barcha ma'nolar bilan o'rganish va muhim o'rganish konteksti.
- Ijtimoiy guruuhlar bilan o'qish.
- Mustaqil qo'llay bilish va ishni mustaqil tashkil qila olish.
- Ishlab chiqarish yo'nalishi.
- Mustaqil jarayon.

Loyihalash ishlari har xil shakllarda bo'lishi mumkun. Aniq kuzatiladigan joy, intervyu, kutubxona materiallaridan, internetdan telefon suhbatlaridan foydalanish mumkun. Olmon tilida suhbatlashadigan davlat va xorijiy davlatlari haqida, odamlari haqida ma'lumot to'plab loyihalash mumkun. Bu materiallar munozara uchun, o'z

fikrini mustaqil bayon qilishi va aholisi haqida suhbatlashishda muhim o'rin tutadi. Eng muhim loyihalash ishida kerak bo'ladigan materiallar gazeta – devoriy gazeta, matn reportajlari, audio va video reportajlarini ro'llarga bo'lib o'ynash muhimdir.

Quyidagi mavzularda ko'olab loyihalar yaratish mumkin.

Mehmonlar uchun shahar yoki mavzu bo'ylab sayohat. Restoran, diskoteka, diqqatga sazovor joylar, dam olish joylari haqida loyihalash mumkun.

Barcha materialarni to'plab darsni loyihasi tayyor bo'lgach o'qituvchi qaytarzda darsni olib borishi kerakligi haqida o'ylashi zarur. Darsni olib borish bosqichlari quyidagicha bo'lishi mumkun.

O'qituvchi sifatida mavzular yoki aniq mavzu o'quvchilar bilan birgalikda tanlashi mumkun va qiziqishlari bo'yicha mavzuni aniqlab oladi. Aniq guruhlarga bo'lish mumkun. Guruhlar aniq maqsadni maslahatlashadi, topshiriglarni bo'lishadi va ro'llarga ajratiladi. Axborotlarni guruhida to'plashadi, xulosa qilishadi va materialni tanlab yakunlashadi, shundan so'ng yakun qilishadi. Yakun qismida nimalar bo'lishi mumkun?

Har bir guruh vakili o'z guruhiga xulosasini eshittiradi yoki loyihalangan ishini sxemasini chizib ko'rsatadi. Amaliy ishlarning baholashini va mustaqil ishlab chiqilganligi yoki loyihalanganligi yakuniy ish deb ataladi, ya'ni olmon tilida "dars Endprodukt" deb ataladi.

O'qituvchining loyihalashdagi foydalanadigan materiallari va maqsadi, o'zi yoki hamkasblari bilan hamkorlikda ishlashi uchun kerak bo'ladigan jihozlarini oldindan tayyorlab qo'yishi zarur bo'ladi. Har bir loyiha ishi o'qituvchi tomonidan puxta rejarashtirilgan bo'lishi zarur. Amaliy mashg'ulot o'tish kerak bo'lsa, barcha yozma xujjatlar tayyorlangan bo'lishi shart. Loyihaning kirish qismida ishlash varaqlari, kopirovkalar, doska va bo'r, marker bo'lishi shart. Ishlash vaqtiga tog'ri taqsimlangan bo'lishi kerak masalan: 15 minut, guruhlarni aniqlashga 10 minut, chegaralangan shart uchun 20 minut, ochiq savollar uchun 5 minut belgilanadi. Ishlash jarayoni munozara guruhlar ishi bo'lishi mumkun. Darsning maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda mavzuni tashkillashi, aniqlashi va fikrlarini to'plashi yoki o'quvchilar aniq shart chegarasini bilishi mumkun.

Xulosa qilib aytish mumkinki, darsning loyihalash tartibi juda ko'p jarayonlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon pedtexnologiyasi talab etadigan metodik jarayonlar esa nemis tili fanini o'rgatishda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.